QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.04.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

RAHIMQULOV SHOKIR RIZOYEVICH

MAHALLIY XOMASHYO MANBALARI ASOSIDA RUX OKSIDI OLISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

02.00.13-Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

TEXNIKA FANLARI FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Nukus – 2026

UO‘K 661.847.22

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)

Rahimqulov Shokir Rizoyevich
Mahalliy xomashyo manbalari asosida rux oksidi olish
texnologiyasini ishlab chiqish.....3

Рахимкулов Шокир Ризоевич
Разработка технологии получения оксида цинка на
основе местных сырьевых источников…….....21

Rakhimkulov Shokir Rizoyevich
Development of a technology for producing zinc oxide
based on local raw material sources…….....39

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....42

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.04.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

RAHIMQULOV SHOKIR RIZOYEVICH

MAHALLIY XOMASHYO MANBALARI ASOSIDA RUX OKSIDI OLISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

02.00.13-Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

TEXNIKA FANLARI FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Nukus – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5236 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Samadiy Murodjon Abdusalimzoda** texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Seitnazarov Atanazar Reipnazarovich** texnika fanlari doktori, professor
	To‘rayev Zokirjon texnika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Farg‘ona davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya ishi himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.T.04.08 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil «14» noyabr soat 16^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Akademik Ch. Abdirov ko‘chasi, 1. Tel.: (+99855) 105-60-48; faks: (+99855) 105-60-48, e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya ishi bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 613-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Akademik Ch. Abdirov ko‘chasi, 1. Tel.: (+99855) 105-60-48; faks: (+99855) 105-60-48.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «31» oktabr kuni tarqatildi.
(2026 yil «31» oktabrdagi № 6-raqamli reestr bayonnomasi).

Reymov A.M.
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor, akademik

Kazaxbaev S.A.
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.f.d., (PhD), dotsent

Turemuratov Sh.N.
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo bo‘yicha hozirgi vaqtda tarkibida rux saqlovchi xomashyolardan to‘liq foydalangan holda rux oksidini olish va chiqindisiz texnologiyalarni joriy etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Rux oksidini dunyo bo‘yicha umumiy ishlab chiqarish hajmi yiliga 10,5-11 mln. tonnani tashkil etadi. Shu munosabat bilan rux birikmalari, xususan, nanozarrachali rux oksidi alohida ahamiyat kasb etadi. Rux oksidi o‘zining noyob fizik va kimyoviy xususiyatlari bilan ajralib turadi va u istiqbolli universal material sifatida qarash imkonini beradi. Rux oksidi bir o‘lchamli, ikki o‘lchamli va uch o‘lchamli (3D) tuzilmalarda mavjudligi sababli, nanozarrachali rux oksidi turli sohalarda qo‘llanish istiqboliga ega bo‘lgan yangi material sifatida qaraladi. Rux oksidining qo‘llanish sohasi nihoyatda keng bo‘lib, u gaz analizatori, quyosh batareyalari, rezina mahsulotlar ishlab chiqarishda, yarim o‘tkazgich qurilmalarda, kataliz, sog‘liqni saqlash, kosmetika va kosmik sohalarni ishlatilib kelinmoqda. Shu munosabat bilan mahalliy xomashyo manbalaridan nanozarrachali rux oksidi olish texnologiyalarini ishlab chiqish, muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda yetakchi ilmiy markazlar tomonidan turli iqtisodiyot tarmoqlariga ta’sir ko‘rsatadigan nanozarrachali rux oksidini sintez qilishning turli usullarini ishlab chiqishga qaratilgan keng ko‘lamli tadqiqotlar olib bormoqda. Bu borada, nanozarrachali rux oksidi ishlab chiqarish, unga eng mos keluvchi xom ashyo manbasini tanlash, rux saqlovchi xom ashyoni xlorid kislotasi bilan parchalash va rux xlorid eritmalarini aralashmalardan tozalash, rux xlorid eritmasini karbamid bilan ishlov berish uchun o‘ta yuqori chastotali nurlanish yordamida nanozarrachali rux oksidi olishning texnologik parametrlarini belgilashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda mahalliy xomashyo manbalari asosida rux birikmalarini ishlab chiqarish va kimyo sanoatini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Jumladan, rux birikmalari, rux xloridi, rux sulfati, rux fosfati va rux oksidlarini alohida takidlash mumkin. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasining uchinchi yo‘nalishida “...milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashga qaratilgan sanoat siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, yalpi ishlab chiqarishda sanoatning ulushini oshirish hamda ichki mahsulot ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobar oshirish...”[1] kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, mahalliy xomashyodan foydalanib nanozarrachali rux oksidi olish uchun maqbul usullarini joriy etish, hamda nanozarrachali rux oksidi olishning oqilona, tejamkor texnologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyundagi PQ-5159-sonli “Kon-metallurgiya sanoati va unga bog‘liq sohalarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 17-yanvardagi PQ-4124-son “Kon-metallurgiya sanoati korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 son «2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 26-maydagi PQ-4731-sonli “Olmaliq KMK” AJ konlari negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlarida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologoyalari rivojlantirishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII “Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o‘rganganlik darajasi. Ilmiy-texnik adabiyotlarda rux saqlovchi xomashyo manbalarini rux sulfati, rux fosfati va boshqa birikmalarga qayta ishlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar keng yoritilgan. Bu borada ilmiy izlanishlar M.A. Polyak, I.N. Lisichkin, V.S. Korolyov, Yu.Ya. Kaganovich, A. Bakin, A. El-Shaer, M.V. Garrido, M.C. Portillo, H. Juarez, X. Lou, Jahangiri Ali Reza, H.M. Lin, S.J. Tzeng, P.J. Hsiau, D.R. Fosnachtet, V. Van Der Pas, Mi Li, Pan Tsen-xuan va boshqa yetakchi olimlarning ilmiy maktablari tomonidan olib borilgan.

Respublikamizda mahalliy xomashyo resurslari asosida polimetall rudalar, mis tarkibli minerallar, rangli metallar ishlab chiqarish chiqindilarini ikkilamchi xomashyo sifatida qayta ishlash texnologiyalarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari X.T. Sharipov, Z.Ch. Kadirova, Sh.Sh. Daminova, A.A. Saidaxmedov, X.R. Ismatov, O.F. Xodjayev, I.I. Usmanov va boshqalarning ishlarida o‘z aksini topgan.

Ammo muayyan natijalarga erishilgan bo‘lsada, respublikada mavjud rux saqlovchi manbalardan, nano o‘lchamdagi metall oksidlari, xususan, rux oksidi olish texnologiyasini ishlab chiqish to‘g‘risida ishonchli va ilmiy asoslangan ma’lumotlar mavjud emas.

Dissertatsiya mavzusini dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Toshkent kimyo-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining A-12-31-“Past navli silvinitlarni flotatsiya usulda kaliy xloridga qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish” (2015-2017-yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi; “Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi” MChJ bilan KM/6424-sonli “Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi” MChJ korxonasining ishlatilgan molekulyar sito (seolitni) alyuminiy oksidi, kaliy nitrat va rux fosfatiga kompleks qayta ishlash” (2024-2026-yy.) mavzusidagi xo’jalik shartnoma, hamda 2020-2026-yillarga mo‘ljallangan “Xondiza konining polimineral rudalarini qayta ishlash texnologiyalarining ilmiy asoslarini ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Xondiza koni rux saqlovchi xomashyolaridan nanozarrachali rux oksidi olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

Xondiza konining rux tutgan polimetall rudalarining kimyoviy va mineralogik tarkibini o‘rganish;

rux tutgan rudani flotatsiyalash jarayonini o‘rganish;

rux konsentratini oldindan kuydirishning rux xlorid olishni fraksion, kimyoviy tarkibi va texnologik parametrlariga ta’sirini o‘rganish;

rux xlorid eritmasini qo‘shimcha birikmalardan tozalash jarayonini aniqlash;

o‘ta yuqori chastotali nurlanish yordamida nanozarrachali rux oksidini sintez qilishni o‘rganish;

nanozarrachali rux oksidini sintez qilish jarayonining optimal texnologik parametrlarini aniqlash;

nanozarrachali rux oksidi olish texnologiyasini sinovdan o‘tkazish;

Xondiza koni tarkibida rux saqlovch rudasidan olingan konsentratini nanozarrachali rux oksidi kukuniga qayta ishlash maqsadida texnologik sxema va materiallar balansini ishlab chiqish hamda texnik-iqtisodiy hisob-kitoblarini bajarish.

Tadqiqot obyekti polimetall ruda, boyitilgan rux konsentrati, xlorid kislota, karbamid, rux karbonat gidroksid gidrati hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti rux saqlovchi xomashyoni kislota bilan parchalash jarayonlari, rux xloridi eritmasini qo‘shimcha aralashmalardan tozalash hamda uni nanozarrachali rux oksidi ishlab chiqrishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida kimyoviy, rentgen-fluoressensiya, rentgen-spektral, atom yutilish, IQ-spektroskopik, skanerli elektron mikroskop tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Xondiza koni polimetal rudasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri flotatsiya usuli bilan boyitishning optimal texnologik parametrlari aniqlangan;

tarkibida rux bo‘lgan konsentratni oldindan kuydirish va avtoklavda rux xlorid kislotasi bilan parchalashda ruxni eritmaga o‘tish darajasini oshirish mumkinligi aniqlangan;

rux xlorid eritmasini aralashmalardan tozalash jarayonining optimal texnologik parametrlari aniqlangan;

birinchi marta o‘ta yuqori chastotali nurlanish yordamida rux xlorid va karbamid aralashmalaridan nanozarrachali rux oksidi olish imkoniyati aniqlangan;

rux xloridning tozalangan eritmalaridan rux oksidi nanozarrachalarini olishning optimal texnologik parametrlari aniqlangan;

rux konsentratini nanozarrachali rux oksidi kukuniga qayta ishlash uchun texnologik sxema ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Xondiza konining polimetal rudani flotatsiya usuli bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri boyitib, rux konsentratini olish imkoniyati ko‘rsatilgan;

tarkibida rux bo‘lgan konsentratdan rux xloridning tozalangan eritmalarini olish imkoniyati aniqlangan;

o‘ta yuqori chastotali nurlanish yordamida rux xlorid eritmasi va karbamid orqali nanozarrachali rux oksidini sintez qilish imkoniyati asoslangan;

rux konsentratini nanozarrachali rux oksidi kukuniga qayta ishlash bo‘yicha ilmiy asoslangan, samarali texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijasining ishonchliligi zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqotlar natijalari ishlab chiqilgan texnologiyani tajriba-sanoat sharoitida sinovdan o‘tkazishda tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, u Xonjiza konining polimetall rudasini mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim bo‘lgan import o‘rnini bosuvchi kimyoviy mahsulot nanozarrachali rux oksidi kukuni ishlab chiqarishga jalb qilish asoslarini yaratdi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Xondiza konidan olingan polimetall rudalarni nanozarrachali rux oksidi kukuniga qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish va Respublikaning ushbu mahsulotga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq ta’minlashdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiqi. Rux kontsentratini nanozarrachali rux oksidiga qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish oid olingan ilmiy natijalar asosida:

polimetall rudasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri flotatsion boyitish texnologiyasi, kontsentratni dastlabki kuydirish va rux xloridi eritmasini qo‘shimcha aralashmalardan tozalash orqali ruxni ajratib olish texnologiyasi “Elektrokimyozavod” QK AJning tajriba-sanoat sharoitida sinovdan o‘tkazilgan va “Elektrokimyozavod” QK AJning istiqbolli, joriy etiladigan ishlanmalari ro‘yxatiga kiritilgan (“Elektrokimyozavod” QK AJning 2026-yil 26 fevraldagi № 12-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, flotatsiya bilan boyitilgan rux konsentratini keyinchalik qayta ishlash uchun rux xloridining tozalangan eritmasiga qayta ishlash imkoniyati yaratildi;

tozalangan rux xlorid eritmasini o‘ta yuqori chastotali nurlanish yordamida karbamid bilan konversiya qilish va o‘ta yuqori chastotali nurlanishdan foydalanib nanozarrachali rux oksidiga aylantirish texnologiyasi “Elektrokimyozavod” QK AJning tajriba-sanoat sharoitida sinovdan o‘tkazilgan va “Elektrokimyozavod” QK AJning istiqbolli, joriy etiladigan ishlanmalari ro‘yxatiga kiritilgan (“Elektrokimyozavod” QK AJning 2026-yil 26 fevraldagi 12-sonli ma’lumotnomasi). Natijada nanozarrachali rux oksidini ishlab chiqarish imkoniyatini bergan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruzalar qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarini nashr etilishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan mahalliy jurnallarda 3 ta, xorijiy jurnallarda 3 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan 147 nomli adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 106 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishning dolzarbligi va unga bo‘lgan ehtiyoj asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari aniqlashtirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan. Shuningdek, dissertatsiya ishining Respublika ilm-fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilmasi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob **“Rux oksidini olish sohasning zamonaviy holati”** adabiyotlar sharhiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda rux oksidining xossalari, qo‘llanilish sohalari, unga bo‘lgan talab va ishlab chiqarish hajmlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, uni olish usullari bo‘yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari tanqidiy tahlil qilingan. Adabiyot manbalarining tahlili asosida tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Ikkinchi bob **“Boshlang‘ich, oraliq va yakuniy mahsulotlarning xossalari”** tadqiqot obyekti, tajribalar o‘tkazish usullari, kimyoviy tahlil metodikalari hamda fizik-kimyoviy tadqiqot usullariga bag‘ishlangan. Ushbu bobda ishlatilgan xomashyolar, hosil bo‘ladigan oraliq va yakuniy mahsulotlarning tavsifi, ularni o‘rganish jarayonida qo‘llanilgan eksperimental va analitik usullar batafsil yoritilgan.

Uchinchi bob **“Nanozarrachali rux oksidini olish jarayonini o‘rganish”** Xondiza konidan olingan rux saqlovchi xom ashyosini xlorid kislotasi bilan avtoklav usulida parchalab rux xlorid eritmasini olib, hosil bo‘lgan eritmadan nanozarrachali rux oksidi kukuni olish bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan. Buning uchun ruda va rux konsentrati namunalari tanlab olingan.

Buning uchun ruda namunalari olindi. Rentgenofluoressent tadqiqot ma’lumotlariga ko‘ra, rux rudasida 25 % va undan ortiq kremniy, 5 % va undan ortiq rux, taxminan 3,4 % temir, 1 % gacha mis mavjud.

Ma’dandan ruxni 28 % xlorid kislota bilan avtoklav usulida ajratib olish bo‘yicha dastlabki tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, tanlab eritish mahsuloti deyarli qatlamlarga ajralmaydi va filtrlanmaydi. Shuning uchun keyingi tadqiqotlar rudani to‘g‘ridan to‘g‘ri flotatsiya usuli bilan boyitishga qaratildi.

Tadqiqotlar maydalagich, sharsimon tegirmon, magnit ajratgich, elaklar to‘plami, rudani yuvish uchun bak, quritish shkafi va flotatsiya mashinasini o‘z ichiga olgan namunaviy laboratoriya qurilmasida olib borildi.

Dissertatsiyaning ushbu bo‘limida Xondiza koni polimetall minerallarini flotatsiyalash orqali rux konsentrati olish jarayoni tahlil qilingan va rudani tayyorlash, qo‘shimcha minerallarni depressiyalash, sfaleritni faollashtirish, kollektor va ko‘pik hosil qiluvchini tanlash bosqichlari batafsil yoritilgan. Foydalaniladigan flotoreagentlarning nisbatlari va ularning konsentrat unumiga ta’siri ilmiy asoslangan.

Qo‘shimcha minerallarni depressiyalash uchun rux sulfat ($ZnSO_4$) va suyuq shishadan foydalanildi. Bu reagentlar dastlab pirit va mis minerallarini flotatsiya yo‘li bilan chiqaradi. So‘ngra ular sfaleritni depressiyalaydi, bu esa keyinchalik uni teskari flotatsiyalash orqali faollashtirish imkonini beradi.

Sfaleritni keyingi teskari flotatsiyaga tayyorlashdagi eng muhim jarayon uni faollashtirishdir. Buning uchun mis sulfat $CuSO_4$ va bariy sulfat $BaSO_4$ ishlatilgan.

Flotatsiya jarayonida $CuSO_4 \cdot 5H_2O$ yoki $BaSO_4$ aktivator sifatida qo‘shilganda, ZnS ning gidrofobikligining ortishi va konsentratdagi miqdorining ortishi kuzatildi.

Natriy va ammoniy sulfidlari sulfidlash uchun ishlatilgan, bu esa ZnO va $ZnCO_3$ ni ZnS shakliga o‘tkazgan.

Gidrofoblikni oshirish uchun natriy oleatdan foydalanildi. Uning ta’sirida sirt energiyasi kamayadi va zarrachalar havo pufakchalariga yaxshiroq yopishadi.

Ko‘pikning barqarorligini ta’minlash uchun metilizobutilkarbinol va natriy oleatdan foydalanildi, bu esa rux minerali zarrachalarining sirtga ko‘tarilishini ta’minlagan holda mayda va barqaror pufakchalarni olish imkonini berdi.

1-Jadval

Rux rudasini flotatsiya qilishda qo‘llanilgan reagentlar, ularning vazifalari va miqdori

№	Reagentlar	Jarayondagi vazifasi	Ta’sir mexanizmi	Miqdori, g/kg
1	CaO, NaOH	Pulpa muhitining pH ni to‘g‘rilash uchun solinadi	pH 8,0–10,0 bo‘lgan ishqoriy muhit ta’minlanadi	0,5-2,0
2	Suyuq shisha, $ZnSO_4$	Pirit uchun depressor	Temir birikmalarini gidrofil qiladi	0,2-1,0
3	$CuSO_4$, $BaSO_4$	Rux birikmalarini faollashtiradi	Zn^{2+} ionlarining ZnS ga o‘tishini ta’minlaydi	0,050-0,30
4	Na_2S, NH_4HS	Sulfidlovchi vazifasini bajaradi	Rudada ZnO ni ZnS ga aylantiradi	0,10–1,50
5	Olein kislotasi, Natriy oleat	Kollektor vazifasini bajaradi	Rux birikmalariga gidrofoblik xususiyatlarini beradi	0,2-0,4
6	Kerosin, Metilizobutil karbinol	Ko‘pik hosil qiluvchi	Pulpaning yuza faolligini pasaytiradi	0,010–0,050

Flotatsiya jarayonida gidrofob zarrachalar ko‘pikka o‘tadi, gidrofil zarrachalar esa kamera qoldig‘ida qoladi. Flotatsion qo‘shimchalarning ta’siri bo‘yicha olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rux rudalarini flotatsiya usulida boyitishda reagentlar rejimi va ularning o‘zaro ta’siri eng muhim omil hisoblanadi. Sfaleritni samarali faollashtirish, oksidlangan minerallarni sulfidlash va ko‘pikning optimal rejimi yuqori sifatli konsentrat olishni ta’minlaydi.

2-Jadval

Depressorlar, kollektorlar va ko‘pik hosil qiluvchilarning flotatsiya jarayoni samaradorligiga ta’sirini o‘rganish natijalari

№	Flotoreagentlar		Konsentrat		Qoldiq minerallar miqdori, %					
	Nomi	Miqdori, g/l	Rux mineral	Boshqa qo‘ shimcha minerallar	Rux minerali	Kremniy birikmalari	Temir birikmalari	Qo‘ rg‘ oshinli minerallari	Mis minerallari	Metallarning boshqa birikmalari
Depressorlar	Suyuq shisha	0,1	52,20	5,29	8,23	28,05	1,48	1,87	0,82	2,06
		0,2	52,90	5,31	7,66	28,06	1,47	1,76	0,80	2,04
		0,3	52,95	5,39	7,54	28,07	1,48	1,81	0,78	1,98
	$ZnSO_4$	0,1	53,05	5,31	7,31	28,04	1,47	1,91	0,81	2,10
		0,2	53,35	5,34	7,12	28,07	1,44	1,89	0,79	2,00
		0,3	53,40	5,35	7,08	28,04	1,47	1,87	0,80	1,99
Kollektorlar	Olein kislota	0,2	52,80	5,31	7,58	28,05	1,51	1,83	0,81	2,11
		0,3	52,85	5,33	7,52	28,05	1,49	1,84	0,80	2,00
		0,4	52,95	5,34	7,48	28,04	1,51	1,85	0,82	2,01
	Natriy oleat	0,2	53,20	5,36	7,23	28,07	1,45	1,89	0,82	1,98
		0,3	53,30	5,39	7,13	28,04	1,43	1,85	0,79	2,07
		0,4	53,40	5,40	7,03	28,05	1,41	1,84	0,76	2,11
Ko‘ pik hosil qiluvchilar	Kerosin	0,02	52,50	5,32	7,98	28,04	1,45	1,86	0,82	2,03
		0,03	52,60	5,36	7,83	28,05	1,43	1,84	0,82	2,07
		0,04	52,70	5,30	7,73	28,03	1,48	1,89	0,84	2,03
	Metilizobutilkarbinol	0,02	54,20	5,48	6,23	28,04	1,44	1,85	0,79	1,97
		0,03	54,35	5,43	6,13	28,03	1,42	1,85	0,78	1,99
		0,04	54,40	5,44	6,02	28,05	1,48	1,84	0,78	1,99

O‘tkazilgan flotatsion tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Xonjiza konining sfalerit rudasi tarkibidagi yo‘ldosh minerallarni so‘ndirish uchun rux sulfat eng maqbul depressor hisoblanadi, degan xulosaga kelindi. Natriy oleat kollektori va metilizobutilkarbinol ko‘pik hosil qiluvchisi jarayonning yuqori samaradorligini ta’minladi.

Flotatsiya usulida olingan rux konsentrati namunalari kimyoviy va fizik-kimyoviy usullar yordamida o‘rganildi. Rux konsentrati tarkibida 39,45-40,50 % rux, 13,00-13,50 % kremniy, 1,60-1,65 % temir bo‘ladi.


Olib borilgan tadqiqotlar Zn:HCl=1:1,1 mol nisbatda va kislotaning 28 % konsentratsiyasida ruxning konsentratdan eritmaga o‘tish darajasi 68,45 % dan oshmaydi, bu esa cho‘kma bilan ruxning 30 % gacha yo‘qolishiga olib keladi.

Zn:HCl mol nisbatini 1,5 gacha oshirish ruxni ajratib olish darajasini 75 % gacha oshiradi, bu ham yetarli emas. Shuning uchun rux konsentratidan ruxni ajratib olish bo‘yicha tadqiqotlar ilgari ishlab chiqilgan rux konsentratini oldindan qizdirish texnologiyasi bo‘yicha davom ettirildi. Texnik yechimga ko‘ra, ruxni

ajratib olish darajasini oshirish uchun rux konsentratini dastlabki kuydirish va keyinchalik 27-28 % xlorid kislotasi bilan avtoklavda tanlab eritish zarur.

Ajratib olish darajasi 75 %, sanoat sharoitida rux ajratib olishdan foydalanish uchun juda past. Rux boyitmasidan ruxni maksimal darajada ajratib olishning maqbul texnologik parametrlarini oshirish uchun boyitmani kuydirish harorati, Zn:HCl nisbati, 28 % xlorid kislotasi bilan avtoklavda tanlab eritish jarayonining davomiyligiga ta’siri o‘rganildi.

1-rasmda. Ajratib olish harorati 80 °C va tanlab eritish jarayonining davomiyligi 10 soat bo‘lganda rux konsentratini kuydirish haroratining 28 % xlorid kislotasi bilan ruxni ajratib olish darajasiga ta’siri to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.



1-Rasm. Rux konsentratini kuydirish jarayonining ruxni ajratib olish darajasiga ta’siri

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, haroratning 300 °C dan 500 °C gacha ko‘tarilishi bilan qizdirilgan konsentratdan ruxni ajratib olish darajasi 75,64 % dan 90,05 % gacha oshadi. Kuydirish haroratini yanada oshirish ruxni ajratib olish darajasiga deyarli ta’sir qilmaydi va 600 °C kalsinatsiya haroratida 90,13 % ni tashkil qiladi.


600 °C da kuydirilgan kontsentratdan ruxni 28 % li xlorid kislota bilan 80 °C haroratda va 10 soat davomida eritib ajratib olish darajasiga Zn:HCl nisbatining ta’sirini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, Zn:HCl nisbati ruxni ajratib olish darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi (2-rasm).

Shunday qilib, Zn:HCl= 1:0,8 nisbatda ruxning ajralish darajasi 80,25 % ni tashkil qiladi, 1:1,1 nisbatda 90,05 % ga yetadi va Zn:HCl= 1:1,5 nisbatgacha deyarli o‘zgarmaydi.


500 °C da kuydirilgan ruxni ajratib olish davomiyligining ta’siri 80 °C haroratda va 28 % kislota konsentratsiyasida o‘rganildi (3-rasm).

Ajratib olish jarayonining davomiyligi oshishi bilan ruxni ajratib olish darajasi oshadi va 5 soatdan keyin 60,18 % ga, 10 soatdan keyin 90,48 % ga yetadi va 10 soat tanlab eritishdan keyin o‘zgarmaydi.

Kuydirilgan konsentratdan ruxni eritib olish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar 500 °C da kuydirilgan konsentratdan 90 % dan ortiq ruxni ajratib olish imkoniyati aniqlandi.Optimal texnologik parametrlar xlorid kislota konsentratsiyasi 28 %, harorat 80 °C, Zn:HCl nisbati 1:1.1 va avtoklavda eritish jarayonining davomiyligi 10 soat. Ruxning eritmaga o‘tish darajasi 90 % dan ortiq. Eritmadagi rux miqdori 15,34 %, temir 0,7 % va boshqa aralashmalar miqdori foizning o‘n mingdan bir ulushini tashkil etadi.



2-Rasm. 500 °C da kuydirilgan konsentratdan ruxni avtoklav reaktorida ajratib olish darajasiga Zn:HCI nisbatining ta'siri



3-Rasm. 500 °C haroratda kuydirilgan rux konsentratidan ruxni ajratib olishda harorat va jarayon davomiyligining ta'siri

Olingan rux xlorid eritmalarini tarkibida 0,367-0,637 % temir mavjud shuning uchun eritmalarni temirdan tozalash jarayoni ammiak eritmasi yordamida amalga oshirildi. Suyuq fazadagi boshqa komponentlarning miqdori kremniy umuman bo‘lmaganda foizning o‘n mingdan bir ulushini tashkil qiladi.

Ushbu tadqiqot natijasida temirni pH 4-4,5 da cho‘ktirishdan iborat. Bunda rux pH 5 gacha cho‘kmaydi va eritmada qoladi.

Uch valentli temir ammoniy gidroksidi bilan pH 4-4,5 da o‘zaro ta'sirlashib, quyidagi reaksiya bo‘yicha temir gidroksidini hosil qiladi:

$$FeCl_3+3NH_4OH\rightarrow Fe(OH)_3+3NH_4Cl$$

Bunda rux eritmada qoladi va pH 5 dan yuqori bo‘lganda cho‘ka boshlaydi.

Hosil bo‘layotgan temir gidroksidi gel-simon tuzilishga ega va yomon filtrlanadi. Filtrlanuvchanlikni yaxshilash uchun pulpa 1 soat davomida ushlab turildi. Bunda cho‘kma zarrachalari yiriklashadi va filtrlash tezligi yaxshilanadi.

Pulpa ushlab turilgandan so‘ng, u filtrlanadi. Filtrat tarkibida rux xlorid, ammoniy xlorid va ruxning ammiakli komplekslari mavjud. Cho‘kma tarkibida asosan temir gidroksidi mavjud.

Rux reaksiyaga ko‘ra murakkab birikmalar hosil bo‘lishi bilan tavsiflanadi:

$$Zn^{+2}+4NH_4OH\rightarrow[Zn(NH_3)_4](OH)_2+4H_2O$$

bu esa temirni cho‘ktirishda ruxning eruvchan shaklda saqlanishini ta'minlaydi.

Natijada rux xlorid va ammoniy xloridni o‘z ichiga olgan temirsiz eritma hosil bo‘ladi. pH darajasini oshishi rux gidroksid va keyin amin kompleksi hosil bo‘lishiga olib keladi.

Tozalangan rux xlorid eritmasini olish uchun tarkibida 15,35 % rux, 0,69 % temir, 5,66 % xlorid kislota va 23,27 % xlor ioni bo‘lgan 100 g suyuq fazaga 26,9 g 25 % li ammiak eritmasi (pH 4,9) bilan ishlov berildi. Bundan tashqari, 60 daqiqa ushlab turgandan so‘ng, 1,45 g temir gidroksid cho‘kadi. Eritmada 32,3 g rux xlorid va 8,35 g ammoniy xlorid mavjud, bu 25,75 % rux xlorid va 6,65 % ammoniy xloridni o‘z ichiga olgan eritmaga to‘g‘ri keladi.

$ZnCl_2$:$CO(NH_2)_2$ massa nisbatining rux oksidi nanozarrachalar hajmiga ta'sirini o‘rganish uchun 5-15 % rux xlorid va karbamid saqlovchi eritmalar

tayyorlandi, $ZnCl_2$:$CO(NH_2)_2$ nisbati = 1:1. Olingan aralashma pechda 5 daqiqa davomida o‘ta yuqori chastotali nurlanish bilan nurlantirildi. Tajriba davomida olingan natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-Jadval

$ZnCl_2$ va $CO(NH_2)_2$) nisbatining konversiya darajasiga ta’siri

Na’muna, №	$ZnCl_2$, %	$CO(NH_2)_2$, %	Konversiya darajasi, %
1	5	5	84,61
2	6	6	85,32
3	**7**	**7**	**85,93**
4	8	8	75,56
5	10	10	83,76
6	12	12	76,51
7	14	14	73,85
8	15	15	71,70

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, eritma tarkibida 5 % $ZnCl_2$ va 5 % $CO(NH_2)_2$ bo‘lsa, konversiya darajasi 84,61 % ga etadi. Eritmada rux xlorid miqdori 7 % va karbamid miqdori 7 % bo‘lganda, konversiya darajasining oshishi kuzatiladi. Bu holda, konversiya darajasi 85,93 % ni tashkil qiladi. Eritmada 15 % rux xlorid va 15 % karbamid miqdori bilan konversiya darajasi 71,70 % gacha pasayadi.

Maksimal konversiya darajasiga hissa qo‘shadigan karbamid miqdorini aniqlash uchun rux oksidi nanozarrachalarini sintez qilish jarayoni o‘rganildi; 2 % dan 20 % gacha ko‘paytirilgan miqdorda 7 % rux xlorit va karbamid aralashmasidan iborat eritmalar tayyorlandi (4-jadval). Optimal sharoitlar eritmadagi har bir komponentning 7 % miqdorida $ZnCl_2$:$CO(NH_2)_2$ = 1:1 nisbati bo‘lib, bu maksimal konversiya darajasini ta’minlaydi.

4-Jadval

7 %-li rux xlorid eritmasini o‘ta yuqori chastotali nurlanish bilan ishlov berishda karbamid miqdorining konversiya darajasiga ta’siri

Na’muna №	$ZnCl_2$, %	$CO(NH_2)_2$, %	Konversiya darajasi, %
1	7	2	56,20
2	7	3	70,10
3	7	5	75,93
4	**7**	**7**	**85,93**
5	7	9	85,59
6	7	11	85,02
7	7	13	84,35
8	7	15	83,56
9	7	17	82,74
10	7	20	81,95

Tarkibida 7 % rux xlorid va 7 % karbamid bo‘lgan eritmalar aralashmasidan konversiya jarayoniga o‘ta yuqori chastotali nurlanishning ta’sirini aniqlash maqsadida ishlov berish davomiyligining ta’siri o‘rganildi. Eritmalar aralashmasiga ishlov berish jarayoni 1 daqiqadan 10 daqiqagacha davom etdi,

konversiya darajasi aniqlandi. Tadqiqot davomida olingan natijalar 5-jadvalda keltirilgan.

5-Jadval

7 % li rux xlorid eritmasi va karbamid aralashmasi konversiya darajasiga o‘ta yuqori chastotali nurlanishda vaqtining ta’siri

Na’muna, №	Vaqt, daqiqa	$ZnCl_2$, %	$CO(NH_2)_2$, %	Konversiya darajasi, %
1	1	7	7	59,10
2	3	7	7	75,00
3	**5**	**7**	**7**	**85,93**
4	7	7	7	85,94
5	8	7	7	85,94
6	9	7	7	85,96
7	10	7	7	85,98

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, $ZnCl_2$ va $CO(NH_2)_2$ eritmalari aralashmasiga o‘ta yuqori chastotali nurlanish bilan ishlov berish davomiyligi 1 dan 5 daqiqagacha oshganda konversiya darajasi 59,10 % dan 85,93 % gacha oshadi va keyinchalik deyarli o‘zgarmaydi, 10 daqiqalik ishlovdan so‘ng 85,98 % ni tashkil etadi. Ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, 7 % $ZnCl_2$ va 7 % $CO(NH_2)_2$ eritmalarini o‘ta yuqori chastotali nurlanish bilan ishlov berishda optimal vaqt besh dan yetti daqiqagacha, konversiya darajasi esa 85,93-85,94 % ni tashkil qiladi.

$Zn_4CO_3(OH)_6 \cdot H_2O$+aq cho‘kmasining kuydirish haroratining nanozarrachali rux oksidi hosil bo‘lishiga ta’sirini o‘rganishda, cho‘kmani oldindan quritib, olingan mahsulotdan namlikni olib tashlamasdan kalsinlash mayda kristalli ZnO olish imkonini bermasligi aniqlandi, chunki yuqori haroratlarda mavjud namlik yopishqoq massa hosil bo‘lishiga olib keladi va reaktor devorlariga yopishadi. Shuning uchun cho‘kma quritish pechida 100-150 °C haroratda namligini yo‘qotish maqsadida oldindan quritiladi. Optimal quritish harorati 120-130 °C ni tashkil etadi.

Quritilgan birikmani optimal kuydirish haroratini aniqlash uchun 300 °C dan 600 °C gacha bo‘lgan haroratning ta’siri o‘rganildi (6-jadval).

6-Jadval

Quritishdan keyin cho‘kmaning konversiyalanish darajasiga kuydirish haroratining ta’siri


Na’muna №	Harorat, °C	$ZnCl_2$, %	$CO(NH_2)_2$, %	Zn, %	ZnO, %	Konversiya darajasi, %	Nanozarrachalar o‘lchami, nm
1	300	7	7	77,38	96,41	81,80	51,5-78,9
2	350	7	7	78,40	97,60	83,61	36,4-40,7
3	**400**	**7**	**7**	**80,03**	**99,62**	**85,93**	**30,4-35,6**
4	450	7	7	80,04	99,64	85,97	30,3-34,9
5	500	**7**	**7**	80,05	99,67	86,00	30,7-35,3
6	550	7	7	80,06	99,69	86,10	30,1-34,8
7	600	7	7	80,07	99,70	86,11	30,3-35,2

Kuydirish haroratining ortishi ZnO zarrachalarining o‘lchamini 300 °C haroratda 51,5-78,9 nm dan 400 °C haroratda 30,4-35,6 nm gacha kamayishiga

olib keladi va 600 °C haroratgacha deyarli o‘zgarmaydi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, cho‘kindini oldindan quritish 400 °C kalsinatsiya haroratida 30,4-35,6 nm o‘lchamdagi nanozarrachali rux oksidi olish imkonini beradi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, cho‘kindini oldindan quritish 400 °C kalsinatsiya haroratida 30,4-35,6 nm o‘lchamdagi nanozarrachali rux oksidi olish imkonini beradi.

Rasm 4. da Xondiza koni rux saqlovchi konsentratidan olingan 5 % li (a) va 7 % li (b) rux xloridi eritmasi va karbamid asosida sintez qilingan nanozarrachali rux oksidi mikrofotosuratlari keltirilgan.



a b

4-Rasm. Nanozarrachali rux oksidini mikrofotosurati

Olingan natijalar bizga rux xlorid va karbamid eritmalarini o‘ta yuqori chastotali nurlantirish jarayonining mexanizmini taklif qilish imkonini beradi, bunda nanozarrachali rux oksidi hosil bo‘ladi.

O‘ta yuqori chastotali nurlanish ta’sirida eritmaning harorati 90 °C dan yuqori ko‘tariladi va karbamidning parchalanish jarayoni quyidagi reaksiyaga muvofiq sodir bo‘ladi:

$$CO(NH_2)_2+2H_2O \xrightarrow{t,\ °C} CO_2+2NH_3+H_2O$$

bunda, eritmaning pH qiymati ammiakni yutilishi bilan ammoniy gidroksid hosil bo‘lishi va karbonat angidridning ajralib chiqishi bilan boradi. Rux xlorid ammoniy gidroksid bilan reaksiyaga kirishib, rux gidroksid va ammoniy xloridni hosil qiladi:

$$ZnCl_2+2NH_4OH \xrightarrow{t,\ °C} Zn(OH)_2+2NH_4Cl$$

hosil bo‘lgan rux gidroksidi ajralib chiqqan karbonat angidrid bilan reaksiyaga kirishib, reaksiyaga muvofiq rux karbonat gidroksid gidratini hosil qiladi:

$$4Zn(OH)_2+CO_2+aq \xrightarrow{t,\ °C} Zn_4CO_3(OH)_6\cdot H_2O+aq$$

quritish jarayonida va keyingi kalsinatsiya jarayonida rux karbonat gidroksid gidrati reaksiyaga muvofiq parchalanadi:


$$Zn_4CO_3(OH)_6\cdot H_2O \xrightarrow{400\ °C} 4ZnO\cdot\uparrow CO_2+\uparrow 4H_2O$$

nanozarrachal rux oksidi hosil bo‘ladi.

Rux oksidi sintezi jarayonida hosil bo‘lgan ammoniy xlorid eritmasi guruch yetishtirish uchun qimmat va eng keragli o‘g‘it hisoblanadi.

Nanozarrachalar xususiyatini aniqlash maqsadida, o‘ta yuqori chastotali nurlatish reaktori yordamida gidrotermal usulda olingan ZnO nanozarrachalarning rentgen difraksion tasvirlari o‘lchandi. Buning uchun rux oksidi nanozarrachalar sintezining optimal sharoitlarida olingan namunalar tanlab olindi va ular 300, 400

hamda 500 °C haroratda kuydirildi. 5-rasmda rentgen difraksiyasi natijalari keltirilgan. Bu yerda a - kuydirilmagan ZnO, b – 300 °C haroratda kuydirilgan, v - 400 °C da va g - 500 °C da kuydirilgan namunalar uchun.



5-Rasm. Rux oksidining rentgen difraksiya ko‘rinishi, (a) kuydirishdan oldin ZnO, (b) 300 °C da, (v) 400 °C da va (g) 500 °C da kuydirilgan namunalar

2θ = 31,8, 34,4, 36,3, 47,5, 56,6, 62,8 va 67,9 da kuzatilgan cho‘qqilar kuydirishgacha bo‘lgan ZnO zarrachalariga mos keladi. Ushbu cho‘qqilar mos ravishda (100), (002), (101), (102), (110), (103) va (112) difraksion tekisliklariga to‘g‘ri keladi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, 300 °C, 400 °C va 500 °C haroratda olingan namunalarda hech qanday aralashmalar kuzatilmadi.

Boshqa tomondan, dastlabki ZnO namunalarining rentgenogrammalarida 2θ oralig‘ida 31.8 dan 34.48 gacha bo‘lgan sohada rux gidrokarbonat gidratiga mos keluvchi kichik cho‘qqilar aniqlangan. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, rux xloridi va karbamid aralashmasidan o‘ta yuqori chastotali nurlatish reaktorida gidrotermal usul yordamida toza ZnO ni olishning imkoni yo‘q.


Yaxshi kristallangan ZnO ni yuqori haroratda kuydirilganda so‘ng nanozarrachali rux oksid olinadi.

Fizik-kimyoviy tadqiqotlar optimallashgan sharoitlarda olingan va 99,62 % ZnO, 0,08 % PbO, 0,006 % boshqa elementlarni o‘z ichiga olgan rux oksidi nanokristallari namunalarida o‘tkazildi. Elementlar tahlili natijalari ruxning 80,05 % va kislorodning 19,59 % miqdorda ekanligi aniqlandi, bu esa to‘liq rux oksididagi tarkibiga mos keladi.

Rentgenogrammada 2,81, 2,47, 1,47 va 1,40 Å oralig‘ida diffraktsion maksimal cho‘qqilar mavjud bo‘lib, ular rux oksidiga tegishlidir.

To‘rtinchi bob **“Nanozarrachali rux oksidini olish jarayonining texnologik ko‘rsatkichlarini o‘rganish”** nomlanib, unda rux oksidi suspenziyasining cho‘kish darajasi va filtrlanishini o‘rganish, ishlab chiqilgan rux oksidi nanozarrachalari texnologiyasini sinovdan o‘tkazish, texnologik sxema ishlab chiqish, moddiy oqimlar sxemasini tuzish, moddiy balansni hisoblash hamda dastlabki texnik-iqtisodiy tahlillarni amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar rux oksidi suspenziyasining bosimni kamaytirish darajasini o‘rganishda, cho‘kmaning juda tez cho‘kishini ko‘rsatdi. Xususan, 230 soniyada suspenziyaning cho‘kish darajasi 10,6 % ni, 710 soniyada esa 22,8 % ni tashkil etdi. Maksimal cho‘kish darajasi esa 1804 va 2000 soniyalarda 25,3 % ga yetdi. Shu bilan birga, hosil bo‘lgan cho‘kmaning hajmi 74,7 % ni tashkil etadi, bu esa texnologik nuqtai nazardan qoniqarsiz holat hisoblanadi (6-rasm).



6-Rasm. Konversiyadan keyin hosil bo‘lgan suspenziyani tinish darajasi

Suspenziya filtrlash tezligining bosimni kamaytirish darajasi va jarayon haroratiga bog‘liqligini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, suspenziya har qanday bosimni kamaytirish va harorat sharoitida ham yaxshi filtrlanuvchanlik xususiyatiga ega. Bu esa ishlab chiqarish jarayonida uning samarali ajratilishi va keyingi texnologik bosqichlarga oson o‘tishini ta’minlaydi.


Filtrlash tezligi 20–60 °C harorat oralig‘ida va 300 mm simob ustuni bo‘yicha bosimni kamaytirishda suspenziya uchun 3278,40–3957,49 kg/m^2·soat ni tashkil qiladi.

Filtrlash jarayonida Bosimni kamaytirish darajasi va haroratning oshirilishi quyqa, filtrat va qattiq faza bo‘yicha filtrlash tezligini oshishiga olib keladi. Shunday qilib, kolbadagi bosimni kamaytirish darajasining 200 mm simob ustunidan 500 mm simob ustunigacha oshirilishi 20 °C haroratda pulpa bo‘yicha filtrlash tezligini 2742,06 kg/m^2·soatdan 4819,61 kg/m^2 soatgacha oshiradi. Olingan natijalar rux kontsentratidan rux oksidi nanozarrachalarini olish texnologik sxemasini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi (7-rasm).

Texnologiyaning mohiyati tarkibida rux bo‘lgan konsentratlarni xlorid kislota eritmasi bilan kislotali parchalash, so‘ngra qattiq fazani ajratish, rux xlorid eritmasini olish, eritmani aralashmalardan tozalash, o‘ta yuqori chastotali nurlanish usuli bilan tozalangan rux xlorid eritmasini karbamid bilan konversiyalash, reaksion massani filtirlash, quritish so‘ngra kuydirish va rux oksidi nanozarrachalarini olishdan iborat.

Rux oksidining nanozarrachalarini olish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- rudani flotatsiya usulida boyitish;
- rux konsentrati 500 °C da kuydirish;
- rux konsentrati yuqori bosimli avtoklavda 80 °C da xlorid kislotasi bilan parchalash;
- rux xlorid eritmasini olish va eritma tarkibidagi qo‘shimcha aralashmalardan tozalash;
- tozalangan rux xlorid eritmasi va karbamidning o‘zaro ta’siri orqali nanozarrachali rux oksidi olish;
- bo‘tqa sovutish va olingan mahsulotni filtrlash orqali ajratish;
- olingan mahsulotni quritish va kuydirish;
- tayyor mahsulotni qadoqlash.



6-Rasm. Rux konsentratidan nanozarrachali rux oksidi olishning texnologik sxemasi

1, 14 – kuydirish pechi, 2, 15 – barabanli sovutgich, 3 – avtoklav reaktori, 4, 7, 11 – filtrlar, 5, 12 – idishlar, 6, 8 – aralashtirgichli idishlar, 9 – O‘YuCh nurlatish qurilmasi, 10 – sovituvchi idish, 13 – barabanli quritgich, 16 – qadoqlash uskunasi.

Texnologik rejim me’yorlari aniqlangan, rux konsentratidan nanozarrachali rux oksidi olish ishlab chiqarishining moddiy oqimlar sxemasi va moddiy balansi tuzilgan.

Rux tutgan konsentrat kuydirish pechiga (1) yuboriladi va termik ishlovdan o‘tkaziladi. Termik ishlovdan chiqqan konsentrat (2) barabanli sovitgichda sovitiladi. Keyin, sovitilgan kontsentrat aralashtirgich, termometr va manometr bilan jihozlangan avtoklav reaktorga (3) yuboriladi, u yerda xlorid kislotasi yordamida kislotali parchalash amalga oshiriladi. Hosil bo‘lgan reaksion massa filtrga (4) yuboriladi, u yirda qattiq va suyuq fazalar bir-biridan ajratiladi. Filtrlangan rux xlorid eritmasi (5) idishda yig‘iladi va keyin aralashtirish idishiga (6) yuboriladi, u yerda temirdan tozalanadi. Xosil bo‘lgan suspenziya filtrga (7) yuboriladi. Tozalangan eritma O‘YuCh nurlatish qurilmasiga (9) yuboriladi. Hosil bo‘lgan mahsulot sovitishga (10) yuboriladi, sovitilgan mahsulot filtrga (11) o‘tkaziladi. Filtrdan o‘tgan eritma (12) idishga yo‘naltiriladi va undan keyin ammoniy xlorid eritmasi o‘g‘it sifatida omborga yuboriladi. Qattiq filtrat quritish (13) barabaniga yuboriladi. Quritilgan mahsulot esa kuydirish pechiga (14) yuboriladi. Hosil bo‘lgan mahsulot (15) barabanli sovutish qurulmasida sovutiladi va qadoqlash uskunasiga (16) yuboriladi.

Olib borilgan sinov tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, Xondiza koni rudasidan olingan rux kontsentratidan nanozarrachali rux oksidi olish texnologiyasi sodda, maxsus qo‘shimcha jihozlarni talab etmaydi, energiya va resurs tejamkor texnologiya hisoblanadi.

O‘tkazilgan texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar Xondiza koni rudasidan olingan rux kontsentratidan nanozarrachali rux oksidi ishlab chiqarishda yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Bir tonna rux oksidi uchun iqtisodiy foyda

16,148 million so‘mni tashkil etadi. Agar 100 tonna mahsulot sotilsa, umumiy iqtisodiy foyda 1,614 milliard so‘mni tashkil qiladi.

XULOSA

Dissertatsiya ishini bajarish jarayonida quyidagi muhim ilmiy va amaliy natijalarga erishildi:

1. Xondiza konidan olingan polimetall rudalarni dastlabki mis va qo‘rg‘oshindan tozalamasdan flotatsiya usuli bilan boyitish orqali 4,95-5,15 % dan 40,50 % gacha to‘g‘ridan-to‘g‘ri boyitish mumkinligi aniqlandi.

2. Flotatsiya usuli bilan olingan rux konsentratidan ruxni avtoklavda tanlab eritish jarayonini o‘rganish orqali ruxni xlorid kislotaning 28 % li eritmasida ajratib olishning darajasi Zn:HCl = 1:1,5 nisbatda 75,45 % dan oshmasligi aniqlandi.

3. Rux kontsentratini dastlabki kuydirish jarayoni olib borilganda, ruxni xlorid kislota bilan ajratib olish darajasini oshirishi aniqlangan. Tanlab eritish jarayonining optimal texnologik parametrlari aniqlandi: rux kontsentratini 500 °C da kuydirish, so‘ngra Zn:HCl nisbati 1:1,1 bo‘lgan 28 % xlorid kislotasi yordamida avtoklavda tanlab eritish, jarayon harorati 80 °C, avtoklav bosimi 17 atm va reaksiya davomiyligi 10 soat. Shu sharoitda ruxni eritmaga o‘tish darajasi 90 % dan oshganligi o‘rganildi.

4. Rux xlorid eritmasini temirdan tozalash imkonini beruvchi pH qiymati 4,9 ga yetgunga qadar ammiakning 25 % li eritmasi berish aniqlandi. Bunda eritmaning temirdan tozalanish darajasi 98,33 % ga yetadi va uning tozalangan eritmadagi miqdori 0,01 % dan oshmaydi.

5. Tozalangan rux xloridi eritmasi va karbamidni o‘ta yuqori chastotali nurlanishdan foydalangan holda gidrotermal usul orqali nanozarrachali rux oksidi olish imkoniyati aniqlandi. Optimal sharoitlar $ZnCl_2$:$CO(NH_2)_2$ nisbatida 1:1, rux xloridi kontsentratsiyasi 7 %, karbamid miqdori 7 %, O‘YuCh nurlanish quvvati 800 Vt va jarayon davomiyligi 5 daqiqa. Shu sharoitda konversiya darajasi 85,93 % ni tashkil etadi.

6. Nanozarrachali rux oksidi olish uchun olingan $Zn_4CO_3(OH)_6 \cdot H_2O$+aq birikmasidan namlikni yo‘qotish maqsadida 100-110 °C haroratda quritish va shundan keyingina 400 °C haroratda kuydirish kerak.

7. Xonjiza koni rudasidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri flotatsiya usuli bilan olingan konsentrati asosida nanozarrachali rux oksidi olishning texnologik sxemasi va moddiy balansi tuzildi. Texnologiya “Elektrokimyozavod” QK AJning tajriba-sanoat sharoitida sinovdan o‘tkazildi, natijada quyidagi tarkibdagi nanozarrachali rux oksidi olindi (mas. %): 99,62 - ZnO, 0,08 - PbO, 0,006 - boshqa elementlar.

8. Texnik-iqtisodiy hisoblar Xondiza koni rux saqlovchi rudasidan flotatsiya usuli bilan olingan rux konsentrati asosida nanozarrachali rux oksidi olish uchun ishlab chiqilgan texnologiya yuqori rentabellikga egaligini ko‘rsatadi. 1 tonna rux oksidi nanozarrachalarini sotishdan olingan iqtisodiy samara 16,148 million so‘mni tashkil etadi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.T.04.08 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

ТАШКЕНТСКИЙ ХИМИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

РАХИМКУЛОВ ШОКИР РИЗОЕВИЧ

РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ ОКСИДА ЦИНКА НА ОСНОВЕ МЕСТНЫХ СЫРЬЕВЫХ ИСТОЧНИКОВ

02.00.13–Технология неорганических веществ и материалов на их основе

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ

Нукус – 2026

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под номером B2025.1.PhD/T5236.

Диссертация выполнена в Ташкентском химико-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.karsu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyonet.uz.)

Научный руководитель:	**Самадий Муроджон Абдусалимзода** доктор технический наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Сейтназаров Атаназар Рейпназарович** доктор технический наук, профессор
	Тураев Зокиржон доктор технический наук, профессор
Ведущая организация:	**Ферганский государственный технический университет**

Защита диссертации состоится «14» ноябрь 2026 года в «16^{00}» часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.T.04.08 при Каракалпакском государственном университете по адресу: 230112, г. Нукус, ул. Академика Ч. Абдирова, 1. Тел.: (+99855) 105-60-48; факс: (+99855) 105-60-48; e-mail: karsu_info@edu.uz

С диссертацией можно ознокомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрирован за № 613). Адресс: 230112, г. Нукус, ул. Академика Ч. Абдирова, 1. Тел.: (+99855) 105-60-48; факс: (+99855) 105-60-48.

Автореферат диссертации разослан «31» октябрь 2026 года
(реестр протокола рассылки № 6 «31» октябрь 2026 года).

А.М. Реймов
Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор, академик

S.A. Казахбаев
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.ф.т.н.,(PhD), доцент

Ш.Н. Туремуратов
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
ученых степеней, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в настоящее время уделяется большое внимание получению оксида цинка с полным использованием цинксодержащего сырья и внедрению безотходных технологий. Общий объем производства оксида цинка в мире составляет 10,5-11 млн тонн в год. В этом отношении соединения цинка, в частности, наноразмерный оксид цинка приобретает особое значение. Оксид цинка отличается уникальными физическими и химическими свойствами, что делает его потенциально универсальным материалом. Благодаря тому, что оксид цинка может существовать в одно-, двух- и трехмерных (3D) структурах, нанометрический оксид цинка может классифицироваться как новый материал с перспективой применения в различных областях. Широкий спектр применения оксида цинка включает газоанализ, солнечные батареи, производство резиновых изделий, полупроводниковые устройства, катализ, здравохранение, косметику, космические направления. В связи с этим разработка технологий получения наноразмерных частиц оксида цинка из местных сырьевых источников имеет большое значение.

В мире ведущие научные центры проводят обширные научно-исследовательские работы, направленные на разработку различных вариантов синтеза наноразмерных частиц оксида цинка, которые затрагивают различные отрасли экономики. В связи с этим, получение наноразмерного оксида цинка, использование наиболее приемлемого источника при выборе сырья, разложение цинксодержащего сырья соляной кислотой, очистка раствора хлорида цинка от примесей необходимо особое внимание уделить установлению технологических параметров получения наноразмерного оксида цинка с применением сверхвысокочастотного излучения для обработки раствора хлорида цинка с карбамидом.

В республике осуществляются широкомасштабные мероприятия по разработке технологий производства соединений цинка на основе местных сырьевых источников, что приводит к определенным научным и практическим результатам. В частности, можно выделить такие соединения цинка, как хлорид цинка, сульфат цинка, фосфат цинка и оксид цинка. В третьем направлении Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены такие важные задачи, как «…продолжение реализации промышленной политики, направленной на обеспечение стабильности национальной экономики, увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте и роста объёма производства промышленной продукции в 1,4 раза…»[1]. В этом аспекте важное значение имеет разработка эффективных, экономически дешевых, экологически безопасных технологий переработки местных сырьевых источников с получением оксида цинка с наноразмерными частицами.

Данное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Постановлениях Президента Республики

[1]Указ Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

